

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**

25-avgust 2026-yil

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2026

Tuzuvchilar: f.f.d., akademik Sh. Sirojiddinov
f.f.d., prof. B.Abdushukurov
PhD, dotsent v.b. M.Xolmuradova
f.f.n., dots. N.Sulaymonova

KIRISH

Sharq mamlakatlari tarixi, rivojlanish bosqichlari, hozirgi kunda ushbu davlatlarda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni O'zbekiston bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganish hozirgi kundagi ta'lim yo'nalishining dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur dastur "Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan.

Dastur ikki yo'nalishni qamrab oladi: Osiyo va Afrika xalqlari tillari hamda Osiyo va Afrika xalqlari adabiyoti.

Tilshunoslik yo'nalishida talabgorning sharq tillarining tarixiy taraqqiyoti, hozirgi sharq tillarini tadqiq etish bilan bog'liq masalalarni bilishi ko'zda tutiladi.

Osiyo va Afrika xalqlari bo'yicha talabgor quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lmog'i kerak:

- o'rganilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari;
- o'rganilayotgan sharq tilining yozma, adabiy, og'zaki shakllari;
- o'rganilayotgan tilning fonetik tizimi va fonologik xususiyatlari, yozuv tizimi va tarixiy bosqichlari, imlo qoidalari, morfologiya va sintaksisi hamda ularni o'rganishdagi mavjud muammolar;
- o'rganilayotgan tildagi so'z yasash usullari va ularning o'rganilganlik darajasi;
- o'rganilayotgan tilning leksikologiyasi va ularning boshqa tilshunoslik yo'nalishlari bilan aloqasi;
- o'rganilayotgan til bo'yicha tilshunoslik terminologiyasini egallash va ilmiy adabiyotlarni o'qib, tarjima qilish malakasiga ega bo'lish.

Adabiyotshunoslik yo'nalishi bo'yicha kirish imtihoni dasturida sharq xalqlari adabiyotlarini o'rganish borasidagi mamlakat adabiyotining xronologik tarzda rivojlanish tarixi, bosqichlari, har bir bosqichning umumiy adabiy tavsifi, bu davr ijodkorlarining ijodi, adabiy merosi va bu merosning mazmun-mohiyati haqida bilimga ega ekanligi inobatga olinadi. Unda sharq xalqlari (arab, fors va turk) adabiyotining qadimgi davrdan XXI asrning boshlarigacha bo'lgan rivojlanish tarixini to'liq aks ettirgan mavzular qamrab olingan.

Dasturda sharq xalqlari adabiyoti rivojiga asos bo'lgan manbalar, adabiyot taraqqiyoti davomida shakllangan turli yo'nalish va oqimlar, turli janrlar, sharq xalqlari adabiyotining poetika masalalari, ijodiy metodlar masalalariga mustaqil fikr-mulohaza bildirish olishi ko'zda tutiladi.

OSIYO VA AFRIKA XALQLARI TILLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY MASALALARI

I. Tilshunoslikning umumnazariy masalalari

Sharq tillarini o'rganish bo'yicha tilshunoslikning umumiy muammolari. Zamonaviy tilshunoslik maktablari. Tilshunoslikning umumiy muammolari. Zamonaviy tilshunoslik maktablari. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Ilmiy tadqiqot tamoyillari. Til universiyalari. Dunyo tillari va ularni tasniflash masalasi.

O'rganilayotgan tilning jahon tillari orasida tutgan o'rni va tillar oilasiga mansubligi. Tilning rivojlanish bosqichlari. Qadimiy davr va undagi asosiy yozma manbalar. O'rta davr va uning yozma manbalari. Hozirgi zamon adabiy tili, yuzaga kelish va shakllanish bosqichlari, qardosh tillar va qo'shni tillar bilan o'zaro munosabatlari; globallashuv jarayoni va yetakchi tillar bilan o'zaro munosabati. Til va uning funksiyasiga oid nazariy qarashlar. Tilning ilmiy va ijtimoiy vosita sifatida rivojlanish istiqbollari. Tildagi mavjud ilmiy muammolarni mamlakatda va mamlakatdan tashqarida o'rganilganlik darajasi. Mamlakatdagi milliy tilshunoslik nazariyasining jahondagi yetakchi tilshunoslik ilmiy maktablariga munosabati va takomil darajasi. Tillarni qiyosiy darajada o'rganish. Kognitiv tilshunoslik. Lingvokulturologiya. Lingvopoetika. Mamlakat tilshunoslarining yaratgan asosiy ilmiy adabiyotlari va ularning yo'nalishlari: grammatika nazariyasi, leksikologiya, so'z yasalishi, semasiologiya, fonetika va fonologiya, uslubshunoslik va leksikografiya bo'yicha e'lon qilingan asosiy adabiyotlar.

Til tarixi masalalari

Sharq tilining tarixi. Kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari. Tilning nutq tovushlari tizimining tarixiy taraqqiyoti. Yozuv tarixi masalalari. Yozma yodgorliklar tilini o'rganishning nazariy masalalari. Sharq yozma yodgorliklarini fonetik, leksik-semantik, grammatik jihatdan o'rganish. Til tarixini diaxronik aspektda o'rganish. Tarixiy leksika va uning takomili. Tarixiy leksikografiya masalasi. Tilning morfologik tizimi va uning tarixiy taraqqiyoti. Grammatik kategoriyalar va ularning o'ziga xosliklari. Yozma manbalar va ularning tili masalasi. Sintaksis tarixi. Tilning siktaktik qurilishi va uning o'zgarib borishi. Yozma yodgorliklarda uslub masalasi: badiiy uslub va uning tarixiy takomili, rasmiy uslub va uning kelib chiqishi, tarixiy takomili, ilmiy uslub va uning tarixi.

Hozirgi sharq tillarini tadqiq etishning nazariy masalalari

Fonetika va fonologiya tizimi va uning ilmiy o'rganilishi.

O'rganilayotgan tilning fonetik tizimi va uning fonologik asoslarga muvofiqligi. Fonetik tizim va fonemalar tasnifi. Tovush va fonema. Fonema va

harf. Unli fonemalar va ularning tasnifi. O'rganilayotgan til doirasida unli tovushlar talaffuzi va uning o'ziga xosligi.

Undosh fonemalarning tizimi va ularning tasnifi. Undosh fonemalarning talaffuz xususiyatlari. O'rganilayotgan til konsonantlarining boshqa tillar bilan o'xshashligi va farqi.

O'rganilayotgan tildagi so'z va jumla tuzilish qonuniyatlari. Fonologik transkripsiya tizimi va uning xalqaro transkripsiya tizimiga mosligi.

Yozuv

O'rganilayotgan til yozuvi haqida umumiy ma'lumotlar. Tilning alifbo tizimi. Fonemalarning grafik ifodalanishi va ligaturalar. Yozuvdagi grafik belgisi bo'lmagan fonemalar va ularning ifodalanish usullari. Yozuv turlari. Tilning raqamlari va ularning belgilar tizimi. Imlo qoidalari va tinish belgilari.

Grammatika

Grammatikaning o'rganish mavzusi. Tilning grammatik qurilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar. O'rganilayotgan til morfologiyasi va sintaksisining o'ziga xos xususiyatlari.

Morfologiya. Leksik-semantik va grammatik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar.

So'zlarni turkumlash tamoyillari. Mustaqil so'z turkumlari va ularning tasnifi bo'yicha yondashuvlar.

Yordamchi so'z turkumlari, ularning tasnifi.

Sintaksis

Sintaktik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar. O'rganilayotgan til doirasida so'z birikmasi va gap. Sodda va qo'shma gaplar. Sodda gaplarning turlari: yig'iq va yoyiq sodda gaplar. Gap bo'laklari.

Qo'shma gaplar va ularning turlari. Ergash gapli qo'shma gaplar. Ularning tuzilishi, turlari, gap bo'laklarining o'rni.

Leksikologiya va frazeologiya. Sharq tili ilmida leksikologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, o'ziga xosliklari. Sharq tili ilmida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari.

Tilning lug'at tarkibi va uning tadqiqi. Tub va o'zlashma so'zlar. So'zlarning o'zaro sintagmatik va pragmatik munosabati. Til birliklarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Til lug'at tarkibining o'zgarib borishi.

So'z yasalishi. So'z yasash usullari.

Uslubshunoslik. Sharq tili ilmida stilistika masalasining yoritilishi. Nutqning funksional uslublari va ularning tadqiqi. Adabiy va og'zaki nutq uslubi. Og'zaki nutqning fonetik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklari.

Matn lingvistikasi. Sharq tili ilmda matn lingvistikasining o'рни. Matnni o'rganishda umumiy va xususiy yondashuvlar.

II. Sharq xalqlari adabiyoti

Adabiyotda ramz, shakl va mazmun. Badiiy matn va badiiy uslub. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar.

Adabiy jarayonga yondashuv turlari. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari. Yangi davr sharq adabiyotida romantizm, modernism, postmodernism tamoyillari. Sharq adabiyotida realizm masalasi.

Nazariy poetika. She'riyatda vazn, ritm, ohangning o'рни. Xalq og'zaki ijodida mazmun va ohang uyg'unligi. So'z san'atida tasviriylilikni ta'minlovchi omillar. So'z san'atida metafora va tashbehning ahamiyati.

Badiiy nutq so'z san'atining asosi sifatida. Nasr va nazmda so'z va nutq. Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula: adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi. Kompozitsiya va component. Personaj, xarakter, tip.

Badiiy asar turlari. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi. Epik janrlar. Epos va roman. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar va epik qahramon masalasi. Qadim va o'rta asrlar sharq adabiyotida drama. Mumtoz sharq adabiyotida dramatik janrlar. Dramatik asarda syujet va kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda monolog va dialog.

Lirik she'riyat va nasriy lirika. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang. Lirikada shakl va mazmun mutanosibligi. Lirik asarda syujet va kompozitsiya. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar. Xalq og'zaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga ta'siri. Yangi davr she'riy janrlari. Nasriy lirika. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif.

Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari. Yangi davrda falsafiy-estetik oqimlarning sharq xalqlari adabiyotiga ta'siri.

Arab adabiyoti

Qadimgi va mumtoz davr arab adabiyoti. Islomgacha bo'lgan arab adabiyoti va uning asosiy xususiyatlari. Johiliya davri arab she'riyati. Qur'oni Karim va uning arab adabiy tili hamda adabiyotining rivojlanishidagi o'рни. Islomning ilk davri adabiyoti. Ummaviylar davri arab adabiyoti. Umaviylar davrida she'riyatning rivojlanishi. Siyosiy, madhiyaviy va hajviy she'riyat. Abbosiylar davri arab adabiyoti va uning taraqqiyot xususiyatlari. Abbosiylar davrida adabiy-madaniy muhit. Arab adabiyotida nasrning shakllanishi va rivojlanishi. Maqoma janri va uning poetik xususiyatlari. Arab adabiyotida tazkirachilik an'anasi. Mumtoz arab adabiyotida tasavvufiy, falsafiy va axloqiy g'oyalarning ifodalanishi. Arab xalq og'zaki ijodi. Arab folklorining janrlar tizimi va o'ziga xos xususiyatlari. Arab xalq og'zaki ijodining tarixiy-madaniy ildizlari. Arab folklorida

mifologik qarashlar va obrazlar. “Ming bir kecha” (“Alf layla va layla”) va uning arab folklori hamda jahon adabiyoti tarixidagi o‘rni. Arab xalq ertaklari, afsonalari va rivoyatlari. Arab xalq hikoyalari va latifalari. Arab xalq ijodida maqol, matal va hikmatlarning o‘rni. Arab xalq ijodida diniy va tasavvufiy motivlar. O‘rta asrlar va keyingi davr arab adabiyoti. Andalusiya arab adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Andalusiya she‘riyati va nasri. Misr, Suriya va Mag‘rib adabiy muhitlari. Mamluklar davri arab adabiyoti. Usmoniylar davri arab adabiyoti va uning asosiy xususiyatlari. XVIII asr arab adabiyotining rivojlanish tendensiyalari. Arab adabiyotida an‘anaviylik va yangilanish masalalari. Mumtoz adabiy an‘analarning keyingi arab adabiyotiga ta‘siri. Yangi va zamonaviy arab adabiyoti. Arab Uyg‘onish davri — Nahda va uning adabiy jarayondagi o‘rni. XIX asr arab adabiyotida yangilanish va islohot jarayonlari. Arab adabiyotida G‘arb adabiyoti ta‘siri. Tarjima va matbuotning arab adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni. Arab adabiy tanqidining shakllanishi va rivojlanishi. XIX asr arab she‘riyati va uning asosiy yo‘nalishlari. XX asr arab she‘riyatida modernizatsiya jarayonlari. Erkin she‘r va zamonaviy arab she‘riyatining shakllanishi. Zamonaviy arab nasri. Zamonaviy arab hikoyachiligining shakllanishi va rivojlanishi. Arab romanining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti. Misr romanchiligi va uning arab adabiyotidagi o‘rni. Zamonaviy arab adabiyotida ayol yozuvchilar ijodi. Arab adabiyotida urush, mustamlakachilik va ozodlik mavzulari. Zamonaviy arab adabiy jarayoni. Zamonaviy arab she‘riyati va uning asosiy poetik yo‘nalishlari. Zamonaviy arab nasri, hikoya va roman janrlarining taraqqiyoti. Arab dramaturgiyasining zamonaviy yo‘nalishlari. Arab adabiyotida modernizm va postmodernizm. Arab adabiyotida realizm, romantizm va ekzistensializm. Zamonaviy arab adabiyotida ramziylik va yangi poetik shakllar. Zamonaviy arab adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o‘rni.

Eron adabiyoti

Eron adabiyotining davrlashtirish masalalari. Islomgacha bo‘lgan davr Eron adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. “Avesto” va qadimgi Eron mifologik tafakkuri. Qadimgi Eron adabiy merosining fors-tojik adabiyoti shakllanishiga ta‘siri. Fors tilida mumtoz she‘riyatning shakllanishi va rivojlanishi. IX–X asrlar fors adabiyoti. Rudakiy ijodining janr va badiiy xususiyatlari. XI asr fors saroy she‘riyati. Tasavvuf adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi. Abulqosim Firdavsiy ijodi. “Shohnoma” asarining yaratilish tarixi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va fors adabiyoti tarixidagi ahamiyati. XI–XII asrlarda fors adabiyotining taraqqiyoti. Tasavvufiy-falsafiy adabiyotning yuksalishi. Umar Xayyom ijodi va uning falsafiy-ruboiynavislik an‘anasi. Abu Homid G‘azzoliy ijodi va uning adabiy tafakkur rivojidagi o‘rni. Nizomiy Ganjaviy ijodi. “Xamsa”ning yaratilishi, tarkibi va mohiyati. XII–XIII asrlar tasavvufiy-falsafiy adabiyoti. Fariddin Attor ijodi. “Mantiq ut-tayr” dostonining g‘oyasi, mazmuni va badiiy xususiyatlari. XIII–XIV asrlar fors mumtoz adabiyoti. Sa‘diy Sheroziy ijodi. “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarining janriy va badiiy xususiyatlari. Temuriylar davri va fors-tojik adabiyoti. Abdurahmon Jomiy ijodi. Fors mumtoz

adabiyotining poetikasi. Fors mumtoz adabiyotida asosiy janrlar: gʻazal, qasida, ruboiy, masnaviy, qitʼa va doston. Mumtoz sheʼriyatda aruz tizimi. Qofiya va radif. Fors mumtoz sheʼriyatida badiiy sanʼatlar. Mumtoz adabiyotda anʼana va ijodiy individuallik. Fors mumtoz adabiyotida obraz, ramz va timsollar tizimi. Yangi davr va zamonaviy Eron adabiyoti. XVI–XVII asrlar Eron adabiyoti manbalari: tarixiy asarlar, tazkira va risolalar. XVI–XVII asrlar Eron adabiyotining asosiy janrlari. Safaviylar davri adabiy-madaniy muhiti. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi va uning fors sheʼriyati taraqqiyotidagi oʻrni. Bedil poetikasining oʻziga xos xususiyatlari. Eronning adabiy markazlari. Isfahon, Sheroz va Tehron adabiy muhitlari. Eron hududidagi adabiy maktablar va adabiy anʼanalar. Eron adabiyotida adabiy markazlarning shakllanishi va ularning fors adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni. Eron adabiyoti va jahon adabiy jarayoni. Eron adabiyotining xalqaro adabiy va madaniy aloqalari. Eron adabiyotiga Yevropa adabiyoti va madaniyatining taʼsiri. Eron adabiyotida yangi adabiy-estetik qarashlarning shakllanishi. XIX–XX asrlar Eron adabiyoti. Eron adabiyotida yangi davrning shakllanishi. XIX asr Eron adabiyoti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. XX asrning birinchi yarmida Eron nasri va sheʼriyatida anʼana va yangilik. Eron adabiyotida modern adabiy tafakkurning shakllanishi. Zamonaviy fors sheʼriyati taraqqiyoti. XX asrning ikkinchi yarmi va zamonaviy Eron adabiyoti. XX asrning 70–80-yillarida Eron adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari. Eron adabiyotida ijtimoiy-siyosiy mavzular. Zamonaviy Eron sheʼriyati va nasri. Zamonaviy Eron adabiyotida anʼana va modernlik munosabati. Zamonaviy Eron adabiyotining asosiy yoʻnalishlari va janrlari.

Turk adabiyoti

Qadimgi va mumtoz davr turk adabiyoti. Turk adabiyotini davrlashtirish masalalari. Qadimgi turkiy adabiy meros va uning turk adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni. Islomiy davr turkiy adabiyoti. Anadolu turk adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi. Eski Anadolu turk adabiyoti. Tekke-tasavvuf adabiyoti va uning asosiy xususiyatlari. Jaloliddin Rumiy va Sulton Valad ijodi. Yunus Emro va tasavvuf adabiyoti. Turk adabiyotida tasavvufiy gʻoyalarning badiiy ifodasi. Turk Divan adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti. Turk adabiyotida tazkirachilik anʼanasi. XV–XVIII asrlar turk adabiyotining asosiy xususiyatlari va vakillari. Lale Devri adabiy-madaniy muhiti. Turk adabiyotida satira va uning poetik xususiyatlari. Turk xalq ogʻzaki ijodi. Turk folklorining janrlar tizimi va oʻziga xos xususiyatlari. Turk mifologiyasi va folklordagi mifologik obrazlar. Turk xalq ijodida epik, lirik va nasriy janrlar. Turk xalq dostonlari va epik anʼanalar. Turk xalq ertaklari, latifalari va hikoyalari. Turk xalq ijodiyotida lirik janrlar poetikasi. Maqol, matal, olqish va qargʻishlarning janriy-poetik xususiyatlari. Âşık adabiyoti va uning xalq ijodi bilan munosabati. Turk xalq teatri. Bolalar folklori. Turk xalqlari ogʻzaki ijodining tipologik va qiyosiy xususiyatlari. Yangi va zamonaviy turk adabiyoti. Tanzimat davri turk adabiyoti va adabiy yangilanish jarayonlari. Tanzimat davrida yangi mavzu va janrlarning shakllanishi. Tanzimat adabiyotida tarjima, matbuot va adabiy tanqidning rivojlanishi. Servet-i Fünûn adabiyoti va uning turk adabiyotidagi oʻrni. Fecr-i Âtî adabiy harakati. Milliy Edebiyat harakati

va unda til, milliy o'zlik hamda folklor masalalari. Respublika davri turk adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti. Respublika davri turk she'riyati va uning asosiy poetik yo'nalishlari. Respublika davri turk nasri, hikoya va roman janrlarining taraqqiyoti. Respublika davri dramaturgiyasi. Turk adabiyotida modernizm va postmodernizm. Zamonaviy turk adabiyotining asosiy tendensiyalari. Turk adabiyotida tarix, jamiyat, milliy o'zlik, xotira va identitet masalalari. Turk adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o'rni. Turk va o'zbek adabiy aloqalari. Hozirgi turk adabiy jarayoni.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi og'zaki ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86-100	Qo'yilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslangan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob qisqa shaklda yoritilgan. Asos bo'luvchi misollar keltirilmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

Tilshunoslik bo'yicha savollar

1. Qadimgi va zamonaviy lug'atlar hamda ularning o'zaro farqi.
2. Morfema tushunchasi, morfema qanday xususiyatlariga ega (o'rganilgan sharq tili misolida)?
3. Tilshunoslikda monosillabizm va polisillabizm tushunchalarining ahamiyati (o'rganilgan sharq tili misolida).
4. O'rganilgan sharq tilining tillar geneologik tasnifidagi o'rni.
5. O'rganilgan sharq tilining tipologik tasnifdagi o'rni.
6. O'rganilgan sharq tilida so'z turkumlari muammosi yuzasidan olimlarning qarashlari.
7. O'rganilgan sharq tilida so'z turkumlarini ajratish mezonlari va olimlarning bu boradagi qarashlari.
8. Grammatik kategoriya va uning (o'rganilgan sharq tili) so'z turkumlari muammosi bilan bog'liq taraflari.
9. O'rganilgan sharq tilida so'z yasallishining asosiy usullari va o'ziga xos jihatlari.
10. O'rganilgan sharq tilida so'z birikmasi va uning turlari borasida olimlarning qarashlari.
11. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari hamda ularning o'ziga xos jihatlari (o'rganilgan sharq tili misolida).
12. Til sathlari haqida ma'lumot bering.
13. Zamonaviy tilshunoslikda paradigma tushunchasi. Zamonaviy lingvistik paradigmalar.
14. Til va nutqning gnoseologik, ontologik, pragmatik tavsiflari. Til va nutq birliklari.
15. Tilning tizimli-tuzilmaviy qurilishi. Tilda shakl va mazmun.
16. Tilni me'yorlashtirish masalalari.
17. Tillarning evolyutsiyasi va rivojlanishi.
18. Lingvosemiotika. Tilning belgili tabiati. Tilning belgilar nazariyasi. Til belgilari tipologiyasi.
19. Mentalingvistika: til, ong va tafakkur aloqasining lingvofalsafiy tomonlari.
20. Tilning semantik tizimi: anglash, bilim, mazmun.
21. Psixolingvistika: psixolingvistik g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Psixolingvistik maktablar va yo'nalishlar.
22. Kognitiv tilshunoslik: bilimning konseptuallashtirish va kategoriyallashtirishning lingvistik muammolari.
23. Kommunikativ lingvistika: til va nutqning kommunikativ birliklari. Sintaktik va kommunikativ ma'nolari.
24. Amaliy lingvistika va kompyuter lingvistikasi.
25. Sotsiolingvistika: Sotsiolingvistik omillar tasnifi va til tizimi rivojining ijtimoiy omillari.
26. Til va madaniyat: metodologiya va nazariya. Lingvomadaniyatning kognitiv aspektlari.
27. Zamonaviy komparativistika muammolari.

28. Metodologiya va tilshunoslik metodlari, zamonaviy tilshunoslikning metodologik izlanishlari.
29. Lingvistik komparativistika metodlari.
30. Struktur metodlar.
31. Lingvostatistik tahlilning asosiy metodlari va tushunchalari.
32. Matn lingvistikasi, uning obyekti va predmeti.

Adabiyotshunoslik bo'yicha savollar

1. Adabiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'рни. Badiiy adabiyotning bosh ob'ekti.
2. Ma'naviyat va adabiyot. Yosh avlod ma'naviy tarbiyasida badiiy adabiyotning yetakchi mavqei va buning sabablari.
3. Estetik tarbiya va adabiyot.
4. O'zbekistonda Sharq xalqlari adabiyotining o'rganilishi.
5. Adabiyotda ramz, shakl va mazmun.
6. Badiiy matn va badiiy uslub.
7. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat.
8. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar. Adabiy jarayonga yondoshuv turlari.
9. Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi.
10. San'at – voqelikka taqlid sifatida ("mimezis" nazariyasi).
11. Insonlar faoliyati – badiiy adabiyotning bosh mavzusi sifatida (Lessing nazariyasi).
12. So'z san'atida emosional ta'sir qudratini hosil qilishning o'ziga xos usullari (Katarsis nazariyasi).
13. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar va yo'nalishlar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
14. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
15. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
16. Yangi davr Sharq adabiyotida realizm masalasi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
17. Yangi davr Sharq adabiyotida romantizm (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
18. Yangi davr Sharq adabiyotida modernizm (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
19. Yangi davr Sharq adabiyotida postmodernizm tamoyillari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
20. Adabiyot san'atning bir turi sifatida.
21. She'riyatda vazn, ritm va ohang (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
22. Xalq og'zaki ijodida mazmun va ohang uyg'unligi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
23. Mumtoz she'riyatda musiqiylikni ta'minlovchi badiiy vositalar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).

24. Soʻz sanʼatida tasviriylilikni taʼminlovchi omillar (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
25. Soʻz sanʼatida metafora va tashbihning ahamiyati (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
26. Badiiy nutq soʻz sanʼatining asosi sifatida. Nasr va nazmda badiiy nutqning oʻziga xos namoyon boʻlishi. Nasr va nazmda soʻz va nutq (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
27. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
28. Adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida)
29. Kompozisiya va komponent. Personaj, xarakter, tip (yigʻma xarakter) (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
30. Badiiy asar turlari (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
31. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
32. Epik janrlar. Epos va roman (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
33. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar va epik qahramon masalasi (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
34. Qadim va Oʻrta asrlarda sharq adabiyotida drama (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
35. Mumtoz sharq adabiyotida dramatik tur unsurlari (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
36. Anʼanaviy va xalq teatri (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
37. Yangi davrda dramatik janrlar (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
38. Dramatik asarda syujet va kompozisiyaning oʻziga xos xususiyatlari (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
39. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
40. Lirikada shakl va mazmun mutanosibligi (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
41. Lirik asarda syujet va kompozisiya. Lirik asar personajlari (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
42. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
43. Xalq ogʻzaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga taʼsiri (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
44. Yangi davr sheʼriy janrlari. Nasriy lirika (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
45. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
46. Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
47. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi oʻzgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).
48. Yangi davrda Yevropa adabiyoti va falsafiy estetik oqimlarining sharq xalqlari adabiyotiga taʼsiri (oʻrganilayotgan til adabiyoti misolida).

49. XX asr realizmi va uning o'ziga xosligi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
50. Neorealizm. Intellektual realizm. Sharq adabiyotida ularning namoyon bo'lishi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.—T.: O'zbekiston, 2016. — 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. — T.: O'zbekiston, 2017. — 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: O'zbekiston, 2017. — 104 b.
4. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

ASOSIY ADABIYOTLAR

Tilshunoslik bo'yicha adabiyotlar

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. — T.: Yangi asr avlodi, 2009.
2. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. — T.: O'qituvchi, 1992.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. — T.: Sharq, 2010.
4. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. — T.: Sharq, 2010.
5. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 1996.
6. Hamidov X.X., Rixsiyeva G.Sh. Turk tili. Leksikologiya. Frazzeologiya. Leksikografiya. — T.: ToshDSH, 2013.
7. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-2-jildlar. —T.: Fan, 2003.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent, 2008.

9. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. – T.: 1995.
10. Mirtojiev M. O‘zbek tili fonetikasi. – T.: Universitet, 1998.
11. Ne‘matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
12. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish. - Samarqand, 2006.
13. Holmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – T.: 2007.
14. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007.
15. Юшманов Н. В. Грамматика литературного арабского языка. – М.: Наука, 1985.
16. Гранде Б. М. Грамматические таблицы арабского литературного языка. – М.: 1950.
17. Ковалёв А. Учебник арабского языка – М.: Восточная литература, 2000.
18. Белкин В. М. Арабская лексикология. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1975.
19. Иброҳимов Н. Араб тили грамматикаси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997.
20. Холидов Б. З. Араб тили дарслиги. – Т.: Фан, 2007.
21. Шомусаров Ш. Слово о фольклоре. – Т.: 2016.

Adabiyotshunoslik bo‘yicha adabiyotlar

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Yangi avlod, 2007.
2. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
3. Adabiy turlar va janrlar. - T.: Fan, 1991.
4. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-t. - T.: Fan, 1978; 2-t. – T.: Fan, 1979.
5. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi (XIII–XVIII asrlar). – Toshkent, 2005.
6. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent, 1989.
7. Alimbekov A. Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: Universitet, 1990.
8. Alimbekov A. XX asr turk nasri taraqqiyoti. – Toshkent, 2001.
9. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: Akademnashr, 2015.
10. Bertels Ye. E. Navoiy va Jomiy. – Toshkent: Fan, 1965.
11. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002.
12. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-jild. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
13. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy (Masnaviyi ma’naviy). – Toshkent: Sharq, 2020.
14. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. – T.: Adabiyot va san’at, 2015.

15. Sa'diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
16. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. 1-kitob. / Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi H. Boltaboyev. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
17. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T., 2004.
18. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Sharq, 2008.
19. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975.
20. Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Издательство восточной литературы, 1960.
21. Введение в литературоведение: Литературное произведение: основные понятия и термины / Под ред. Л. В. Чернец. – М.: Academia, 2000.
22. Мухторов, А., Ходжаева, Р. Традиция и современность в арабской литературе. – Т.: 1999.
23. Кирпиченко, В. Н., Сафронов, В. В. История египетской литературы XIX–XX веков. – М.: Восточная литература, 2003.
24. Современный египетский рассказ. – М.: Наука, 1988.
25. Долинина, А. А. Арабский просветительский роман в конце XIX начале XX века: к проблеме типологии. – Л.: 1975.
26. Кирпиченко, В. Н., Сафронов, В. В. История египетской литературы XIX–XX веков. – М.: Восточная литература, 2003.
27. Фильштинский, И. М. История арабской литературы V начало X века. – М.: Наука, 1985.
28. Фильштинский, И. М. История арабской литературы X–XVIII веков. – М.: Наука, 1991.
29. Акбарова, М. Янги давр араб адабиёти (XIX–XX асрлар). – Тошкент, 2009.
30. Зиёвутдинова, М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг «Мафотиҳ ал-улум» асарида поэтика. – Тошкент, 2001.
31. Зиёвутдинова, М. Араб адабиёти. – Тошкент, 2014.
32. Ходжаева, Р. У. Мамлюклар даври араб адабиёти (XIII–XV асрлар). – Тошкент, 2013.
33. Мухтаров, Т. А., Ходжаева, Р. У. Традиция и современность: из истории арабской литературы. – Ташкент, 1999.
34. Мухтаров, Т. А. Арабский фольклор. – Ташкент: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2013.
35. Стеблева И. В. Газель в средневековой персидско-таджикской поэзии X–XV вв. – М.: Наука, 1981.